



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР НОМЛИ
АНДИЖОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

Турсунова Феруза

R E F E R A T I S H I

АНДИЖОН-2015



MAVZU: INTEGRALLASHGAN TA'LIM PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

REJA:

KIRISH

1. Integrallashgan ta'limda texnologiyalar va ularning asosiy guruhlari
2. Integrallashgan darslarning turalri va shakllari:
3. Yangi bilimlar xosil qilish dars turi
4. Bilim va ko'nikmalarga o'rgatish dars utri
- v) Bilimlarni amalda qo'llash dars turi
- g) Bilimlarni takrorlash, tizimlashtirish va umumlashtirish malakalarini mustahkamlash darsi
- d) Bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish va takrorlash darsi

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi Biz bilamizki, insoniyat yuksak rivojlangan texnika va axborot texnologiyalari asriga qadam qo'ydi. Shunga ko'ra murakkab tizimdagi texnika va texnologiyalar bilan muomala qilib, ko'p miqdordagi axborotlar oqimidan o'rinli foydalanishga mas'uliyat bilan yondashadigan, har tomonlama chuqur bilim va malakaga ega bo'lgan kadrlar zarur. Lekin har tomonlama mustahkam bilimlar tizimiga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash muhim pedagogik muammo bo'lib qolmoqda. Mazkur muammoni hal etishda ta'limning usul va shakllarini integrallashtirish asosida o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarning 70 foizi ta'lim tizimida integrativ dastur va darsliklardan foydalanmoqdalar.

Shu jihatdan kelib chiqib, zamon talabiga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarning ish tajribalariga tayanib, ta'limning usul va shakllarini integrallashtirib o'qitish muammosini hal etishni zarur deb hisobladik. Ushbu muammoni hal etish muhim iqtisodiy va pedagogik samaradorlikni ta'minlaydi. Muammoni ijobiy hal etishni o'quvchilarni ortiqcha yuklamadan ozod etadi, olamni yaxlit holda anglashga, undagi voqea va hodisalar mohiyatini kompleks o'rganishga, bir butun mukammal bilimlar tizimini tarkib toptirishga, barkamol shaxsni shakllanishiga imkon yaratadi.

Shu bois hozirgi davrda o'quv fanlarini integrallashuvini nazariy asoslari, integrallashga bo'lgan yondashuv, integrallashgan dasturlar, integrallashgan darsliklar modelini yaratishga oid masalalar o'z yechimini kutayotgan eng dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Shunga ko'ra biz ilgari surmoqchi bo'lgan masala, bilan shug'ullanuvchi barcha mutaxassislarni integratsiyaning mohiyati, jamiyatda, fan va texnikada integratsiyaning o'rni, ta'limda integratsiyalab o'qitishning guruh va turlariga oid bilimlar bilan birga unda ta'lim shakllari, metodlari va texnologiyalarini integratsiyalash masalalari bilan qurollantirish

1.Integrallashgan ta'limda texnologiyalar va ularning asosiy guruhlari

"Texnologiya" atamasi chet el metodikasidan o'zlashtirilgan bo'lib, undan turli xilda tashkil qilingan ta'lim jarayonini izohlashda foydalanishadi. Texnologiyalarni qo'llash didaktik vazifalarni hal qilish chog'ida o'quvchilarga ta'sir etish usullarini takomillashtirishga yo'naltirilgan.

Pedagogik texnologiyalar turi juda ko'p, ular turli asoslar bo'yicha farqlanadi. Didaktikada texnologiyalar uchta asosiy guruhga bo'linadi.

1. **Tushuntirish – illyustrativ – izoh ta'lim texnologiyasi.** Uning mohiyati o'quvchilarni axborot hamda ma'rifiy bilimlar bilan ta'minlashda va ham umumiy o'quv, ham maxsus (predmet) qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida ularning reproduktiv faoliyatini tashkil etish bilan belgilanadi.
2. **Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi.** Bu ta'limni shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishini nazarda tutgan sub'ektiv asosga ko'chirilishiga yo'naltirilgan
3. **Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi.** Buning asosida o'quvchining shaxsiy rivojlanish ichki mexanizmlarini ishga solishga qaratilgan ta'lim usuli yotadi.

Bu guruhlarining har biri bir necha ta'lim texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Mana misol uchun, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar guruhi turli darajadagi (differensiyalashgan) ta'lim texnologiyasi, jamoaviy o'zaro ta'lim, bilimlarni to'liq o'zlashtirish texnologiyasi, modul ta'lim texnologiyasi va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishni, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ta'sir usullarini takomillashtirishga imkon beradi.



Bir qadar mashhur yoki bir qadar ko‘p qo‘llaniladigan texnologiyalar professor I.V.Dushina tomonidan ta’riflangan. Integrallashgan ta’limda tabiiy ilmiy turkum predmetlariga nisbatan quyidagi texnologiyalar qo‘llaniladi

O‘quv ishlari usullarini (priyomlarini) shakllantirish texnologiyasi.

Bu qoidalar, namunalar, algoritmlar, biror narsani tasvirlash va tavsiflash rejasi ko‘rinishida bayon etiladi. Bu texnologiya qator darsliklarni metodik apparatida o‘zining bir qadar keng aksini topgan va ko‘plab o‘qituvchilarning ish amaliyotida birmuncha yaxshi yoritilgan. Endigina ish boshlayotgan o‘qituvchining eng avvalo shu texnologiyaga e’tibor qaratishi maqsadga muvofiqdir.

Tayanch signallar (varaqlari) texnologiyasi. (Mantiqiy tayanch konspektlar – MTK yoki mantiqiy tayanch signallar – MTS) Ta’limda mantiqiy aloqalar sxemalarining roli haqida yozgan N.I.Baranskiy "sxemalar bosh va asosiy narsani ajratib olishni o‘rgatadi, mantiqiy aloqalarni topish va o‘rgatishga yo‘naltiradi, o‘quvchilarga darsni o‘zlashtirishga sezilarli yordam beradi", – deya ta’kidlagan edi. Aloqalar sxemalaridan o‘qituvchilar muntazam foydalanadilar

O‘quvchilarning o‘qish faoliyatini shakllantirish texnologiyasi. Ushbu texnologiyaning mohiyati shundaki, unda o‘qish faoliyati o‘quvchilar o‘qish faoliyatining alohida shakli sifatida olib qoraladi. U o‘quv topshiriqlari yordamida bilim olishga yo‘naltirilgan. Dars avvalida o‘quv topshiriqlari (daskada, plakatda va boshqalarda) beriladi. Ular dars davomida yechiladi, dars so‘ngida esa mazkur topshiriqlarga muvofiq testlar yordamida natijalarni diagnostik tekshirish o‘tkaziladi. Texnologiya o‘qituvchining kurs (bo‘lim, mavzu) bo‘yicha o‘quv topshiriqlari tizimini yaratishni, o‘z faoliyati va u bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan o‘quvchilar faoliyatining loyihalarini ishlab chiqishni ko‘zda tutadi.

Differensiyallashgan ta’lim texnologiyasi. Uni qo‘llashda o‘quvchilarning tipologik xususiyatlari hisobga olingan holda sinf o‘quvchilari shartli guruhlariga bo‘linadi. Guruhlarni shakllantirishda o‘quvchilarning



o'qishga bo'lgan shaxsiy munosabati, o'qitilganlik va o'qitilish darajasi, predmetni, o'qituvchi shaxsini o'rganishga qiziqishi hisobga olinadi. Turli darajadagi dasturlar va mazmuni, hajmi, murakkabligi, topshiriqlarni bajarish usullari va metodlari bo'yicha farqlanadigan, shuningdek, ta'lim natijalari diagnostikasi uchun kerak bo'ladigan didaktik material yaratiladi.

Bu texnologiyaga juda yaqin va chambarchas bog'liq texnologiya bu – **«o'quv-o'yin faoliyati texnologiyasidir»**. O'quv-o'yin u jiddiy tayyorlangan taqdirda, o'quvchilar ham o'qituvchining o'zi ham faol bo'lgandagina ijobiy natija beradi. Yaxshi ishlangan o'yin ssenariysi muhim ahamiyat kasb etib, unda o'quv topshiriqlari, o'yinning har bir pozitsiyasi, murakkab vaziyatlardan chiqish uchun mumkin bo'lgan metodik usullar aniq belgilangan, natijalarni baholash yo'llari rejalashtirilgan bo'ladi. (O'yinlar turlari ko'p.)

Dialog-muloqot faoliyati texnologiyasi o'qituvchidan o'quv jarayonini tashkil qilish va unga ijodiy yondashishni, evristik suhbat usullarini puxta egallashni, sinf bilan bahs o'tkazishni, o'quvchilar o'rtasida bahs-munozara paydo bo'lishi uchun sharoit yaratishni talab etadi. Turli kurslarning mavzularida o'quv munozarasi tashkil etish uchun muammo va savollar ko'plab topiladi.

Modul texnologiyasi. Modul – deb shunday alohida funksional texnologiyaga aytiladiki, unda o'qituvchi o'quv materiali mazmunining va o'quvchilar tomonidan uni egallash texnologiyasini birlashtiradi.

O'qituvchi o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun maxsus ko'rsatmalar ishlab chiqadi. Unda muayyan o'quv materialini o'zlashtirish maqsadi aniq ko'rsatiladi. O'quvchiga axborot manbalardan foydalanishga aniq ko'rsatma beradi va shu axborotga ega bo'lish yo'llarini tushuntiradi. Shu instruksiylarning o'zida tekshiriladigan topshiriqlarning namunalari keltiriladi.

Loyiha faoliyati texnologiyasi. Ushbu texnologiyaning mohiyati tadqiqot faoliyatini tashkil etishdan iborat. Loyihalar turli xil bo'ladi: ijodiy, axborot, fantastik, tadqiqot va boshqalar.

Shunday qilib, o'qituvchi bu texnologiyalarni integrallashgan ta'limda

qo'llay borib jarayonni bir qadar to'liq, qiziqarli, mazmunan boy qilishga erishadi. Tabiiy fanlarning predmet sohalari kesishgan paytda bunday integratsiya yaxlit dunyoqarash va borliqni idrok etishni shakllantirish uchun o'ta zarurdir.

2. Integrallashgan darslarning turlari va shakllari

Integrallashgan ta'lim predmetlararo aloqalardan keng foydalanuvchi darslar o'tkazilishini ham ko'zda tutadi. Eksperimentator-o'qituvchilar tomonidan tatbiq etilayotgan vositalar sinovdan o'tkazish va o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini va shaxslararo munosabatlarini pedagogik nazorat qilish integrallashgan diagnostikasi shakllarini amalga oshirish uchun tavsiya qilingan bu darslarning turlari va shakllarini biz quyida ko'rib chiqamiz.

Yangi bilimlar hosil qilish dars turi.

Yangi bilimlar hosil qilish darsi quyidagi **shakllarda** loyihalanadi:

- ma'ruza dars
- sayohat dars
- tadqiqot dars
- teatlashtirilgan dars
- o'quv konferensiyasi
- sayr dars
- multimediya dars
- muammoli dars.

Darslarning tuzilishi quyidagi bosqichlarni birlashtiradi: tashkiliy, maqsadning qo'yilishi, bilimlarning dolzarblashuvi, bilimlarni kiritish, dastlabki mustahkamlash va tizimlashtirishni umumlashtirish, o'qishga yakun yasash, uy vazifasi va uni bajarish bo'yicha maslahatni belgilash.

Bilimlar hosil qilish darsining **maqsadi** – o'quvchilar tomonidan o'quv dasturida ko'zda tutilgan tushunchalar va ilmiy faktlarni o'zlashtirish bo'yicha ish tashkil qilish.

Vazifalar:

- Ta'limiy vazifalari: tanishtirish; tasavvur uyg'otish; kartalar,

sxemalarni o'qish va tahlil qilishni o'rgatish; bilim faoliyatini kuchaytirish; tipik xususiyatlarni ochish va h.k.;

- Tarbiyaviy vazifalar: Vatanga muhabbat hissini, o'z yurti uchun faxr tuyg'usini tarbiyalash; ekologik madaniyatni shakllantirish, estetik tarbiya va h.k.;

- Rivojlantiruvchi vazifalar: tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash, asosiy narsani ajrata olish, sabab-oqibat aloqasini belgilash, misollar keltirishni davom ettirish, adabiyot, kartalar, jadvallar, sxemalar va boshqalar bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish.

An'anaviy va zamonaviy darslarni ajrata bilish kerak.

An'anaviy dars umumta'lim vazifalarini hal qiladi o'quvchilarni bilimlar bilan qurollantiradi va u tushuntirish-illyustrativ metodi asosida quriladi. Bunday darsda ko'rgazmali qurollardan keng foydalaniladi, ko'rganlarni kuzatish va tasvirlash tashkil etiladi.

Ta'limning turli metodlari va vositalari birligi asosiga qurilgan bilimlar hosil qilishning **zamonaviy darsi** kompleks vazifalarni hal qiladi. Ta'limning tushuntirish-illyustrativ metodidan ham, qisman izlanish, tadqiqot metodlaridan ham, bahs-munozara, bilimlarning turli manbalaridan, teledasturlardan, kinofragmentlar, magnit yozuvlardan, multimediya kurslari, internet-texnologiyalar, ta'lim va nazoratning boshqa texnik vositalaridan foydalanadi. Shuningdek, turli ish shakllaridan ham keng foydalanadi: guruh, frontal, zveno, juft, individual shakllar.

Bunday darslarda bilim orttirish vazifalarini hal etish uchun ijodiy potensialni ishga solish takliflarini aytish uchun katta imkoniyat yaratiladi, bir so'z bilan aytganda, o'quvchi shaxsining to'la rivojlanishi uchun sharoitlar yaratiladi.

Shuningdek, yangi bilimlar hosil qilish darsi turlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: **bilimlarni hosil qilish va rivojlantirish darslari, bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish darslari, yangi muammoli (tasavvurni) hissiyotni shakllantirish darslari.** Unga sanab o'tilgan dars

shakllaridan seminarni, yakuniy konferensiya, yakuniy sayohatni qo'shish mumkin.

B) Bilim va ko'nikmalarga o'rgatish darsi.

Bilim va ko'nikmalarga o'rgatish darsi quyidagi shakllarni ko'zda tutadi:

- praktikum dars;
- insho dars;
- dialog dars;
- misol;
- qurama yoki kombinatsiyalashgan dars (aralash dars);
- Sayohat;
- ekspeditsiya va h.k.

Dars tuzilishi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: tashkiliy, maqsadning qo'yilishi, uy vazifasini tekshirish va bilimlarni dolzarblashtirish, standart turdagi ijodiy turdagi, bilim va ko'nikmalarning shakllanishi nazorati, uy vazifasini aniqlash vazifalarini bajarish.

Avval o'quvchilar bilim va ko'nikmalarni qayta tiklash faoliyati bilan shug'ullanadi. Keyin umumlashgan ko'nikma va bilimlarni hamda faoliyat usullarini yangi sharoitga ko'chirish unsurlarini egallashni talab etadigan vazifalarni bajaradilar. Bu bosqichda ta'limning differensiyalashgan guruh shakli qo'llaniladi. Keyin ijodiy vazifalarni bajarish, dars oxirida esa ijodiy faoliyat amalga oshiriladi.

Bu guruhda darsning **maqsadi** – o'quvchilarda o'quv dasturida ko'zda tutilgan muayyan malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

Vazifalar:

- ta'limiy vazifalari: tanishtirish; tasavvur uyg'otish; uquv hosil qilish usullarini egallashni o'rgatish; bilimni chuqurlashtirish;
- tarbiyaviy vazifalar: rolni ko'rsatish; faol amaliy harakatga (faoliyatga) jalb etish; tabiat va uni muhofaza qilish madaniyatini, ekologik ongni tarbiyalashga ko'maklashish, ona yurtni sevish hissini

tarbiyalashning ob'ektiv asosini yaratish; muloqot ko'nikmalarini takomillashtirish;

•Ushbu darsning vazifalar: qo'shimcha adabiyot va boshqa axborot manbalari bilan ishlashni, dokladlar tayyorlashni, auditoriya oldida chiqish qilishni, tanqidiy fikrlashni shakllantirishni, tahlil qilish mahoratini, umumlashtirish va xulosalar qilishni o'rgatishdan iborat.

Malaka va ko'nikmalarni hosil qilish darsida asosiy bilim manbalari shuki darsliklardan, masalalar to'plami, didaktik va tarqatma materiallar to'plamidan, multimedia va internet texnologiyalaridan foydalaniladi. O'qituvchi o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqara borib, rag'batlantirish va tezkor nazorat metodlaridan keng foydalanadi. Bu yerda o'quvchilarning o'quv faoliyatini yuqori samaradorlik bilan tashkil etishga yordam beruvchi darsning muvofiqlashtiruvchi va nazorat funksiyalari ishga solinadi. Bu dars ta'limni keng differensiyallashni amalga oshirishga imkon beradi. O'quvchilar topshiriqni o'quv imkoniyatlarini hisobga olgan holda bajaradi va shu tufayli maqsad sari yuqori suratda odimlaydi.

Dars tuzilishi o'quvchilarga juft, guruh va individual ishning har xil turlariga qo'shilish imkonini beradiki, ular dars vaqtining katta qismini band etadi. Ta'limning individuallashtirish va individual-guruhlashgan shakliga murojaat qilish ham mumkin.

Bu dars juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat o'quv materialini g'oyaviy mazmunidan samarali foydalanish hisobiga, balki ratsional muloqot va jamoaviy ishni tashkil etish ham iborat bir-biriga g'amxo'rlik qilishi, yordam ko'rsatishi va qo'llab-quvvatlashining namoyon bo'lishi uchun sharoitlar yaratiladi. Bu o'rinda amalga oshirilgan o'zaro nazorat, o'z-o'zini nazorat qilishning rivojlanishiga yordam beradi. Rivojlantiruvchi vazifalar shunda hal qilinadi.

Bilimlarni mustahkamlash bo'g'inlari birlashishida, malaka va ko'nikmalar hosil qilishda bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirish darsi tuziladi.



Bu darsda o'quvchilar avvalgi bilimlariga suyanib, ularni rivojlantiradi, turli vaziyatlarda ularni qo'llashni o'rganadi. Bilimlarni anglash mahorati va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni kechadi.

Bunday darslarda ta'limning amaliy metodlari hukmronlik qiladi, bilish faoliyati xarakteriga ko'ra esa afzallik qisman izlanish, reproduktiv metodlarga beriladi.

O'qituvchining faoliyati o'ziga xos bo'ladi. O'quvchilarning ishini avvaldan rejalashtirib olib, u tezkor nazoratni amalga oshiradi, yordam ko'rsatadi, qo'llab-quvvatlaydi va ularning faoliyatiga tuzatishlar kiritadi.

V) Bilimlarni amalda qo'llash darsi.

Bu turdagi darslarning asosiy shakllari:

- aylanma va amaliy o'yinlar;
- praktikumlar;
- loyihalarni himoya qilish darsi;
- sayohat;
- ekspeditsiya va h.k.

Dars tuzilishi quyidagi bosqichlarni ko'zda tutadi: tashkiliy, maqsadning qo'yilishi, uy vazifasini tekshirish va bilimlarni dolzarblashtirish, amaliy vazifalarni bajarishda bilim, malaka va ko'nikmalarni ishga solish. Bu darsda o'quvchilar avval orttirgan bilimlariga asoslanib amaliy faoliyat bilan shug'ullanadi. Avval uy vazifasining bajarilishi tekshiriladi, so'ng bilimlarni dolzarblashtirish maqsadida nazariy material ko'rib chiqiladi. Shundan keyin o'quvchilar aniq ifodalangan amaliy ahamiyatga ega bo'lgan konstruktiv topshiriqlarni bajarishga kirishadilar.

Masalan, ekskursiyadan olingan materiallarga tayanib o'quvchilar maktab tomorqasiga almashlab ekishni joriy etish sxemasini tuzadi. Konkret iqtisodiyot masalalarini o'rgana borib, sanoat korxonalarini mahsulot hajmini ko'paytirish bo'yicha tadbirlar rejasini tuzadi, iqtisodiyot qonunlariga suyanib iqtisodiy rivojlanish sxemasini tuzadi. Bu yerda ta'limning hayot bilan aloqa prinsipini amalga oshirish, turli jabha va predmet sohalarini integratsiyalash

uchun keng imkoniyatlar beriladi.

Bu turdagi darsning **maqsadi** – bilimlarni amalda qo‘llash.

Vazifalar:

- ta’limiy vazifalari: olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganish; mavjud imkoniyatlarni konkret vaziyatda ishga sola bilish; o‘quv materiallari bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash; o‘z nuqtai nazarini himoya qilishni o‘rgatish; muammolarni ajrata olish ko‘nikma va malakasini mustahkamlash;

- tarbiyaviy vazifalar: aktiv faoliyatga jalb qilish; madaniyatni shakllantirish; jumladan, ekologik madaniyatni shakllantirish, o‘quvchilarda insonparvar shaxs sifatini shakllantirish; muloqot ko‘nikmalarini takomillashtirish;

- rivojlantiruvchi vazifalar: bilim manbalari bilan ishlash malakasini takomillashtirish, tahlil qilish, turkumlashtirish ko‘nikmalarini takomillashtirish va h.k.; chiqishlar qilish va o‘z nuqtai nazarini himoya qilishni bilish; ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, guruhlarda ishlashning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish; atrofdagi hayotni bilishga qiziqishni rivojlantirish.

Bilimlarni amalda qo‘llash darslari juft, frontal, guruh bo‘lib va individual ishning birligi asosiga quriladi. O‘quvchilarning jamoaviy ishlarning har xil turlariga kirishishi shaxsda insonparvarlik sifatlarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ijodiy xarakterdagi vazifalarni hal etish asosida rivojlanayotgan o‘quv faoliyati ularning samarali rivojlanishiga yordam beradi.

Bu darslarda bolalar nazariy bilimlarini safarbar qila borib eksperimental, tadqiqot, izlanuvchanlik va qisman-izlanuvchanlik faoliyatiga kirishadi. Ularning yuqori darajada rivojlantiruvchi roli mana shunda. Bolalarda ilmiy qarashlar, yaxlit dunyoqarash shakllanadi.

G) Bilimlarni takrorlash, tizimlashtirish va umumlashtirish malakalarini mustahkamlash.

Bu dars turi predmetlararo aloqalarni ishga solish va integratsiyalashning

juda katta imkoniyatlariga ega.

Bu turdagi darsning shakllari:

- takroriy-umumlashtirish darsi;
- bahs;
- o'yin (quvnoqlar va zukkolar klubi, Baxtli voqea, Mo'jizalar maydoni, tanlov, viktorina);

- teatrlashtirilgan dars (sud-dars);
- mukammallashish darsi;
- yakuniy konferensiya;
- yakuniy sayohat;
- maslahat dars;
- nazorat ishlarni tahlil qilish darsi;
- sharhlovchi ma'ruza;
- sharhlovchi konferensiya;
- suhbat dars.

Darsning tuzilishi quyidagi bosqichlarning birligiga asoslanadi: tashkiliy, maqsadning qo'yilishi, bilim va faoliyat usullarini standart va nostandart vaziyatlarda ishga solish, yakun yasash va xulosalar chiqarish, uy vazifasini berish va tushuntirish.

Maqsad – bilimlarni yanada chuqurroq o'zlashtirish, umumlashtirish va tizimlashtirishning yuqori darajasiga erishish.

Bunday darslar dasturdagi katta mavzularni o'rganishda yoki chorak, yil oxirida o'tkaziladi. Bular qatoriga yakuniy darslarni kiritish mumkin.

Vazifalar:

- Ta'limiy vazifalari: avvalgi darslarda mavzu bo'yicha olingan bilim va malakalarni egallash darajasi va sifatini aniqlash; materialni bilimlar tizimi sifatida umumlashtirish;

- Tarbiyaviy vazifalar: umumiy madaniyatni, borliqni, estetik idrok etishni tarbiyalash; o'quvchilarning o'z-o'zini real baholay olishi, o'zini shaxs sifatida ko'ra bilishi uchun sharoitlar yaratish;



- Rivojlantiruvchi vazifalar: keng darajada fikrlashni, klassifikatsiyalash malakasini, aloqalarni aniqlashni, xulosalar chiqarishni rivojlantirish; guruhlar bilan ishlashda kommunikativ bilishga qiziqishni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini, qonuniyatlarni tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash va h.k.larni tushuntira bilish qobiliyatini rivojlantirish.

Bilimlarni takrorlash va sistemalashtirish darsida o'quvchilar har xil faoliyat turlariga kirishadi. Suhbatlar, bahs-munozaralar, laboratoriya ishlari o'tkaziladi, topshiriqlarni bajarish, masalalar yechish amalda sinab ko'riladi. Bu darslarda suhbat bilan bir qatorda o'quvchilarning qisqa xabarlarini, ko'rib chiqilayotgan masalaga oid ayrim maqolalar, kitoblarga og'zaki taqrizlar bilan chiqish qilish qo'llaniladi.

Darsning samaradorligi unda o'quvchilarning reproduktiv-izlanish, qisman-izlanish, ijodiy faoliyatining har xil turlaridan qanchalik keng foydalanishga bog'liq bo'ladi. Agar oddiy takroriy faoliyat afzal ko'rilsa, dars o'z maqsadiga erishmaydi. O'qituvchi avval o'rganilgan materialga yangicha qarashga imkon beradigan ijodiy xarakterdagi topshiriqlarni tayyorlaydi. Bu o'rinda bilimlarni ko'chirish, jamlash va tizimlashtirishga imkon beradigan predmetlararo aloqalardan qanchalik keng foydalanilsa, rivojlantiruvchi funksiya shunchalik muvaffaqiyatli amalga oshadi.

Bilimlarni takrorlash va umumlashtirish darsi o'quv ishlarining guruh shaklini qo'llashga imkon beradi. Avval o'rganilgan materialning turli masalalarini to'liq yoritish maqsadida har xil guruh o'quvchilari turli topshiriqlarni bajarishga kirishishlari mumkin. O'quv ishlari bunday tashkil etilganda o'quvchilar o'quv ishlari jamoaviy shakllarining afzalligiga ishonch hosil qilishadi. Bu darslarda bilimlar tiklanadi, bilganlarni unutishga chek qo'yiladi. Ularning rivojlantiruvchi funksiyasi materialni tahlil qilish, tizimlashtirish usullari orqali namoyon bo'ladi. Tarbiyaviy vazifalar nafaqat o'quv materialining mazmuni, metodlari orqali, balki o'quvchilarning jamoaviy faoliyatini tashkil etish orqali hal etiladi.

D) Bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish va takrorlash darsi.

Darslarda tezkor nazorat muntazam amalga oshiriladi, ammo to'liq nazorat uchun maxsus darslar belgilanadi.

Dars shakllari:

- sinov dars;
- konkurs, tanlov;
- tanlovlar;
- bilimlar ko'rigi;
- ijodiy ishlar, loyihalarni himoya qilish;
- ijodiy hisobot;
- nazorat ishi;
- suhbat.

Bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish darsining **maqsadi** – ta'lim nazoratini amalga oshirish, bilimlarni tizimlashtirishni davom ettirish, materialni o'zlashtirish, malaka va ko'nikmalarning shakllanganlik darajasini aniqlash.

Vazifalar:

- ta'limiy vazifalari: darslardagi mavzulardan olingan bilim va ko'nikmalarni egallash darajasi va sifatini aniqlash; materialni bilimlar tizimi sifatida umumlashtirish; ijodiy, fikran va mustaqil faoliyat olib borish qobiliyatini tekshirish, test topshiriqlari bilan ishlar malakasini mustahkamlash;

- tarbiyaviy vazifalar: o'qishga mas'uliyat bilan yondashishni shakllantirishga, topshiriqlarni xatosiz bajarishga tayyor turish va kuchlarni safarbar qilishga yordam berish; ularni bajarishda katta faollik ko'rsatish; o'quv mehnati madaniyatini, mustaqil ta'lim ko'nikmalarini, vaqtni tejamkorlik bilan sarflashni tarbiyalash;

- rivojlantiruvchi vazifalar: mantiqiy fikrlashni, xotirani, analiz va sintez qilish qobiliyatini kuchaytirish; o'z-o'zini nazorat qilish, jamoada ishlash (jamoaviy ishdan foydalanishda) ko'nikmalarini shakllantirish.

O'quv ishi shakllaridan foydalanishdan kelib chiqqan holda darslarni kompleks, og'zaki va yozma nazorat qilish, shuningdek, elektron darsliklar va

qo'llanmalar bo'yicha dasturlashgan darslarni nazorat qilish darslariga ajratiladi. Bu turdagi darslar xar birining tuzilishiga birozdan to'xtalamiz.

Bilimlarni og'zaki nazorat qilish darsi:

Tuzilishi: tashkiliy bosqich, maqsadning qo'yilishi, bilimlarni o'zlashtirishni tekshirish, ko'nikma va malakalarni, bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishni, o'quvchilar faoliyatini baholashni, uy vazifasini belgilashni tekshirish.

Bu darslar o'quv ishining turli shakllari birligi asosiga quriladi. Frontal va individual so'rov bo'lishi ham mumkin. Lekin ta'limning juft shaklidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, unda o'quvchilar bir-birlari bilan o'zaro savol-javob qilishadi. Har bir o'quvchi tomonidan materialni o'zlashtirishni individual tekshirish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning o'z bilimlari, malaka va ko'nikmalarini baholashiga tuzatishlar kiritadi.

Bilimlarni yozma nazorat qilish darsi.

Tuzilishi: tashkiliy bosqich, maqsadning qo'yilishi, nazorat topshiriqlarni bajarish bo'yicha o'quvchilarning faoliyati.

Bu darslar o'quv ishining individual yoki individuallashtirilgan shakli yoxud ularning birligi asosiga quriladi. Ba'zi bir darslarda o'quvchilar yaxlit (bir xil) topshiriqlarni individual bajaradi. Ko'p hollarda o'qituvchi o'quvchilarga maxsus kartochkalarda individuallashtirilgan topshiriqlar beradi.

Bilimlarni kompleks nazorat qilish darsi.

Ular o'quv ish shaklining rang-barang birligi asosiga quriladi. Avval ayrim o'quvchilarning bilim darajasini aniqlashga, butun sinf tomonidan o'quv material qanday o'zlashtirilgani haqida tasavvur hosil qilishga imkon beruvchi frontal so'rov o'tkaziladi. So'ngra juftlarning o'zaro savol-javobini o'tkazish mumkin. Bunday ish chog'ida o'quvchilar ayrim savollarning o'zlashtirilishini o'zaro tekshirib olishlari va sinf oldida javob berishga tayyorlanib olishlari mumkin.

Ta'limning differensial-guruh shakli o'quvchilar guruhlariga nazorat savollarini ularning o'quv imkoniyatlarini hisobga olgan holda berishga imkon



yaratadi. Bir qator hollarda o'quv ishining individual shakliga murojaat qilish ba'zi bir o'quvchilar tomonidan o'quv materiali qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlab oladi. Individuallashtirish guruh shakli qo'llanilishi ham mumkinki, unda topshiriq uch-beshta o'quvchiga beriladi, sinfning asosiy qismi bilan o'quvchi frontal suhbat va h.k. olib boradi.

Integrallashtirish ta'limda bilimlar, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish darslari fan o'qituvchilarning qiziqarli topshiriqlar tuzish bo'yicha alohida hamkorligini talab qiladiki, bu topshiriqlar ko'rilayotgan masalalarning atrofidagi hayot bilan yaqin aloqada bo'lishini ko'zda tutsin, o'quvchilar esa natijada bilimlarning yaxlitligini, ularning kompleksligini va atrof olamdagi muayyan muammolarni hal etishda o'zaro aloqalarini ko'rsin.

Dars turi: kombinatsiyalashgan dars (aralash dars).

Kombinatsiyalashgan dars o'quv jarayonining mantiqiy bog'lanmagan bo'g'inlari birligi asosiga quriladi. Uning o'ziga xosligi shunda. Bu darsda nazorat, bilimlarni shakllantirish, bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ta'lim natijalarini chiqarish, uy vazifalarini belgilash o'zaro qo'shilishi mumkin.

Kombinatsiyalashgan darslarni integrallashtirish shaklda o'tish qiyin, bu kerak ham emas, chunki, qoidaga ko'ra kombinatsiyalangan darsda yangi materiallarning kichik bir hajmi ko'zda tutilgan bo'lib, ko'p vaqt takrorlash va nazoratga ajratiladi. Integrallashtirish ta'lim darsida har tugul juda katta axborot blokini yoki biron-bir integral muammoni hal qilishi yuzasidan mustaqil ish ko'zda tutiladi.

Materialni kichik bloklarda o'rganish bilimlar tizimini shakllantirishga olib bormaydi, asosiy narsani ajratish, bilimlarni yig'ish va ulashish malakasini sust rivojlantiradi. Materialni ongli chuqur o'zlashtirish jarayoni sekinlashadi. Bunday holatda integrallashtirish ta'limda darslarning bunday tuzilishi o'quvchilarning samarali o'quv faoliyatini tashkil etishga to'sqinlik qiladi.

XULOSA

Fanlar va o'quv materiallari mazmunida juda ko'p takror, bir xillik va keraksiz materiallar uchraydi. Bunday muhim bo'lmagan materiallarni o'rganish natijasida o'quvchining kuchi, vaqti bekorga sarflanadi. Darsliklarni chop etish uchun davlatning ortiqcha mablag'i ketadn. Nashriyotlarda ortiqcha zo'riqish bilan ishlash, qo'shimcha mablag' va xom ashyo sarflanishi kuzatiladn. Ana shu muammolarni xal etish uchun quyidagi masalalarga e'tibor qaratash lozim.

1.Tabiiy fanlar mazmunini tahlil etish asosida takror, ortiqcha materiallarni yo'qotish, ularni o'zaro uygunlashtirishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish.

2.Integraldashgan dars, dastur, darslik yaratish maqsadida tabiiy fanlar bo'yicha ilmiy-metodik jihatdan asoslangan DTSni takomillashtirish.

3. Fanlarni, darslarni, darslarning usul va shakllarini integrasiyalash asosida umumiy o'rta ta'lim o'quv predmetlari soni hamda hajmini kamaytirish.

4.Integratsiyalashgan tabiiy fanlarning mazmuni va ularga qo'yiladigan talablarni aniqlash.

5.O'quvchilar uchun integrallashgan tabiiy fanlarni optimal darslik modelini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poyvedori" T.Sharq 1997
2. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" T.O'zbekiston 1997
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" T.O'zbekiston 2008
4. Abdullaev SH.A. "O'spirinlarni tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashning pedagogik asoslari monografiyasi" T. 2005
5. Amonashvili SH.A. "Obintegralnoy pedagogika" J. Shkola, 1996., №1
6. Nishonova SH. "Ma'naviyat darslari" T. "O'qituvchi" 1994
7. Nishonova U.N. "Instrumentariy obucheniya, vospitaniya i razvitiya" "Uchitel Uzbekistana", 1989, 4 oktbr
8. Podlasniy I.P. "Pedagogika" Uchebnik. Izd. Vlads 2003
9. Saidaxmedov N. "Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyati va zamonaviy loyixa" T.Ta'lim markazi 1999
10. Azimova Z. "K.Voprosu ob integralnoy pedagogike" J. Xalq ta'limi 2006, №4
11. Azimova Z. "Integral pedagogikada o'quvchilarning shaxslararo munosabatlari" J. Pedagogik mahorat 2007, №2
12. Adizov B.R. "Didaktika" T. Fa", 1997
13. Adizov V.R." Ta'lim texnologiyasi" T.O'qituvchi 1999
14. Adizov B.R." Didaktikaning munozara baxsi" J. Xalq ta'limi 1993, № 6-7
15. Adizov B.R. O'quvchilarning B.R". O'quvchilarning o'quv biluv faoliyati" J. Mahorat ko'zgusi 2000, №5,6 bet

Хурматли _____!

Сизни 2010 йил 10-11 май кунлари Андижон давлат университетида педагогика мутахассислиги фанлари бўйича талабалар ўртасида бўлиб ўтадиган Республика фан олимпиадасининг II босқичида иштирок этиш учун